



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti





No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 328 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saida</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	
Ritmik she'r va harakatli mashqlar yordamida 1-sinf o'quvchilarining diqqatini jamlash	311
Yadgarova Iroda Ikromovna	
Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli.....	314
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-kommunikativ motivatsiyani xalqaro miqyosda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	318
Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi	



Pedagogik ta'limda media savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	322
Gulmonova Guli Anvar qizi	

MEHRLI MAKTAB O'QUVCHILARINING IJTIMOY MOSLASHUVCHANLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELI

Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna

Qori Niyoziy nomidagi

Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzoq vaqt davomida davolanayotgan bolalarga ta'lim beruvchi Mehrli maktab hospital maktablari tizimida o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli ishlab chiqilgan va ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada xalqaro tajriba, EACH va HOPE (Hospital Organisation for Pedagogues in Europe) xartiyalari tamoyillari hamda zamonaviy hospital pedagogikasi modellari tahlil qilingan. Maqolada hospital ta'lim muhitida o'quvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini inobatga olgan holda individual ta'lim yo'nalishlarini shakllantirish, ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish hamda ijtimoiy rehabilitatsiyani ta'minlash mexanizmlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Mehrli maktab, hospital pedagogika, ijtimoiy moslashuvchanlik, konseptual model, individual ta'lim yo'nalishi, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash.

Abstract: This article develops and scientifically substantiates a conceptual model for developing the social adaptability skills of students within the system of Mehrli Maktab hospital schools, which provide education to children undergoing long-term treatment. The article analyzes international experience, the principles of the EACH and HOPE (Hospital Organisation for Pedagogues in Europe) charters, as well as modern models of hospital pedagogy. The article highlights mechanisms for forming individual educational pathways, developing social and communicative skills, and ensuring social rehabilitation in the hospital educational environment, taking into account the psychological and pedagogical characteristics of students.

Key words: Mehrli Maktab, hospital pedagogy, social adaptability, conceptual model, individual educational pathway, psychological and pedagogical support.

Аннотация: В данной статье разработана и научно обоснована концептуальная модель развития навыков социальной адаптивности учащихся в системе госпитальных школ "Mehrli maktab", осуществляющих обучение детей, проходящих длительное лечение. В статье проанализированы международный опыт, принципы хартий EACH и HOPE (Hospital Organisation for Pedagogues in Europe), а также современные модели госпитальной педагогики. В статье освещены механизмы формирования индивидуальных образовательных траекторий, развития социальных и коммуникативных навыков, а также обеспечения социальной реабилитации в условиях госпитальной образовательной среды с учётом психолого-педагогических особенностей учащихся.

Ключевые слова: Mehrli maktab, госпитальная педагогика, социальная адаптивность, концептуальная модель, индивидуальная образовательная траектория, психолого-педагогическая поддержка.

KIRISH

Og'ir va uzoq davom etadigan somatik kasalliklarga chalingan hamda statsionar sharoitda davolanayotgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash, ularning jamiyatdan ajralib qolishining oldini olish zamonaviy pedagogika va ta'lim menejmentining dolzarb masalalaridan biridir ^[1, 5, 8, 9].

BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi hamda HOPE va EACH xartiyalari qoidalariga ko'ra, har bir davolanayotgan bola o'z holatiga moslashtirilgan muhitda uzluksiz ta'lim olish huquqiga ega ^[1, 2].

O'zbekiston Respublikasida statsionar tibbiyot muassasalarida uzoq muddat davolanayotgan bolalarning ta'lim-tarbiya olishi uchun Mehrli maktab hospital maktablari tizimi tashkil etildi. Biroq kasallik va davolanish jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy-emotsional va psixofiziologik o'zgarishlar o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishda o'ziga xos yondashuvni talab etadi.



Ijtimoiy moslashuvchanlik o'quvchining yangi psixologik va jismoniy muhitga moslashishi, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini saqlab qolishi hamda sog'aygach, o'zining doimiy maktab muhitiga intellektual va emotsional yo'qotishlarsiz qayta integratsiyalashuvini ta'minlaydi ^[4, 6, 7]. Ushbu tadqiqotning maqsadi Mehrli maktab o'quvchilarida ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini tizimli va samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi konseptual modelni va uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gospital pedagogika va bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalalari L.S. Vygotskiy, U. Bronfenbrenner, A. Bandura kabi olimlarning ilmiy qarashlarida muhim nazariy asosga ega.

L.S. Vygotskiy bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va pedagogik qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ta'kidlagan bo'lsa, U. Bronfenbrenner bolaning rivojlanishini oila, maktab va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri bilan izohlaydi.

A. Bandura esa ijtimoiy o'rganish, muloqot va xulq-atvorni shakllantirishda kuzatish hamda hamkorlikning rolini asoslab bergan.

Shuningdek, HOPE va EACH tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro tamoyillarda uzoq muddat davolanayotgan bolalarning uzluksiz ta'lim olishi, psixologik farovonligi va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Ushbu nazariy va amaliy yondashuvlar Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modelini ishlab chiqishda muhim ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida gospital ta'lim sohasidagi xalqaro va milliy amaliyotlar tahlil qilindi hamda ilmiy-metodologik sintez amalga oshirildi.

UNC Children's Hospital School, CHOP (Children's Hospital of Philadelphia) Hospital School Program va UNC Health Care ta'lim xizmatlari tajribasidan bolaning davolanish davrida o'z maktabi va tengdoshlari bilan aloqasini uzmaslik hamda tibbiy-pedagogik integratsiya mexanizmlari chuqur o'rganildi ^[1, 3].

Ushbu muassasalarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, statsionar sharoitdagi ta'lim nafaqat akademik uzluksizlikni ta'minlaydi, balki bolaga o'zining doimiy turmush tarzi va tengdoshlar jamoasidan ajralmaganligini his qildirish orqali emotsional barqarorlik beruvchi psixologik hamyondosh vazifasini ham o'taydi. AQSh tajribasida, shuningdek, shifoxonaga yotqizilgan birinchi kunlardan o'quvchining asosiy maktabi bilan masofaviy axborot almashinuvi yo'lga qo'yiladi hamda tibbiyot xodimlari va o'qituvchilar hamkorligida bolaning kunlik tibbiy muolajalar va o'quv soatlarini muvofiqlashtiruvchi aniq jadvallar shakllantiriladi ^[3].

Chelsea Children's Hospital School (CCHS), Great Ormond Street Hospital School (GOSH) hamda UCLH Children and Young People's Services tajribasi asosida gospital maktablarda individual dars jadvallari va multidisiplinar guruhlar (shifokor, pedagog, psixolog, tyutor) ishini tashkil etish tamoyillari atroflicha ko'rib chiqildi ^[2, 3].

Britaniya modelida har bir bolaning psixofiziologik holati va davolanish dinamikasiga mos ravishda moslashuvchan dars jadvallari tuziladi hamda uning kognitiv yuklamalari doimiy nazorat qilib boriladi ^[3]. Multidisiplinar guruh tarkibidagi mutaxassislarining har haftalik uchrashuvlari va o'zaro axborot almashinuvi bolaga majmuaviy yondashuvni ta'minlash, ya'ni tibbiy reabilitatsiya jarayonini ta'limiy va psixologik qo'llab-quvvatlash bilan uzviy bog'lash imkonini beradi ^[3].

Yevropa Gospital Pedagoglari Tashkiloti (HOPE) Xartiyasi hamda EACH (European Association for Children in Hospital) konsepsiyasi tahlil qilinib, gospital ta'limda bolaning ijtimoiy huquqlari va psixologik farovonligini ta'minlash standartlari tadqiqotga metodologik asos qilib olindi ^[1, 2]. Ushbu xalqaro me'yoriy hujjatlar va tavsiyalarga ko'ra, statsionar tibbiyot muassasalarida uzoq vaqt bo'lgan bolalar uchun ta'lim jarayonini tashkil etish shunchaki ixtiyoriy tanlov emas, balki bolaning ajralmas insoniy huquqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. HOPE standartlari gospital pedagoglarning kasbiy va emotsional kompetensiyalariga yuqori talablar qo'yish bilan birga, bolalarning ijtimoiy izolyatsiyaga tushib qolishining oldini olish hamda ularda sog'ayishga bo'lgan ichki motivatsiyani shakllantirish bo'yicha aniq mexanizmlarni belgilab beradi ^[2].

"UchimZnaem" gospital maktablar loyihasi doirasida ishlab chiqilgan "O'quvchining individual maxsus ehtiyojlari kartasi" (KIOP) va "Caring School" yondashuvlari tahlil qilinib, ularning o'quvchining psixologik-pedagogik xarakteristikasini aniqlashdagi o'rni va amaliy ahamiyati o'rganildi ^[4, 5]. Ushbu tajriba gospital ta'lim muhitida bolaning faqatgina bilish darajasini emas, balki uning kasallik sababli yuzaga kelgan jismoniy cheklavlari, charchash darajasi, emotsional fonining o'zgaruvchanligi va muloqotga tayyorligini kompleks baholash imkonini yaratadi. "Individual maxsus ehtiyojlar kartasi" orqali har bir uzoq davolanayotgan o'quvchi uchun shaxsiylashtirilgan va uning imkoniyatlariga to'liq mos keladigan ta'lim marshrutini belgilash imkoni paydo bo'ladi ^[4].



Modelni shakllantirish va uni ilmiy-amaliy jihatdan asoslash jarayonida pedagogik modellashirish, qiyosiy tahlil, ekspert baholash, kuzatuv va diagnostika metodlaridan foydalanildi. O'quvchilarning emotsional-irodaviy, kommunikativ hamda bilish jarayonlarini baholashda va ulardagi ijtimoiy moslashuvchanlik darajasining dinamikasini o'lchashda maxsus psixopedagogik diagnostika vositalari hamda moslashtirilgan test-so'rovnomalari qo'llanildi^[4, 6]. Ushbu metodologik majmua gosptal maktab sharoitida o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini aniq prognoz qilish va ta'lim-tarbiya jarayoniga tezkor hamda korreksion tuzatishlar kiritib borish imkoniyatini ta'minladi^[4, 8].

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro tajriba va diagnostik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, gosptal maktab o'quvchilarining 96 % ga yaqini umumta'lim dasturlarini o'zlashtirishga qodir va kognitiv defitsitga ega emas^[4]. Biroq ularning 57 % idan ortig'ida muloqot va emotsional-irodaviy sohada qiyinchiliklar, xavotirlik, doimiy tibbiy muolajalar sababli ijtimoiy passivlik kuzatiladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning Konseptual Modeli ishlab chiqildi.

Konseptual modelning maqsadli bloki uzoq muddatli statsionar sharoitda bo'lgan o'quvchilarning psixologik farovonligini ta'minlash, ularda o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Diagnostik-tahliliy blok doirasida har bir o'quvchi uchun "Individual ta'lim ehtiyojlar kartasi" tuziladi^[4]. Ushbu kartada o'quvchining palatadan chiqishga ruxsat yo'qligi, gadjetlardan foydalanish cheklovi hamda yozuv ishlaridagi qiyinchiliklar kabi tibbiy cheklovlari^[4], diqqat, xotira va motivatsiya singari kognitiv va emotsional-irodaviy ko'rsatkichlari^[4, 6] hamda uning ijtimoiy-kommunikativ ehtiyojlari atroflicha qayd etib boriladi.

Mazmunli-faoliyatli blok o'z ichiga bir necha amaliy yo'nalishlarni qamrab oladi.

Birinchidan, bolaning sog'lig'i va joriy holatiga moslashtirilgan palatada yakka tartibda, guruh xonasida yoki gibril/masofaviy ta'lim shakllarini nazarda tutuvchi Individual ta'lim marshruti (ITM) yo'lga qo'yiladi^[4, 5].

Ikkinchidan, HOPE va GOSH maktablari tajribasiga tayanib, shifokorlar, gosptal pedagoglar, psixologlar va ota-onalar o'rtasida doimiy muloqot platformasini yaratish orqali multidisiplinar yondashuv ta'minlanadi^[2, 3, 8].

Uchinchidan, badiiy-plastik va interaktiv didaktika, art-terapiya, loyiha ishlari hamda guruhli o'yinlar kabi ijtimoiy-moslashtiruvchi pedagogik texnologiyalar vositasida bolalarning emotsional zo'riqishi kamaytiriladi va hamkorlik ko'nikmalari izchillik bilan rivojlantiriladi.

So'nggi natija-baholash blokida esa o'quvchilarning ijtimoiy faollik, mustaqillik, xavotirlikning kamayishi hamda muloqotga kirishuvchanlik kabi moslashuvchanlik ko'rsatkichlari va uning dinamikasi doimiy ravishda baholanib boriladi.

Gosptal ta'lim va psixopedagogik qo'llab-quvvatlash bo'yicha dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, davolanayotgan bolalar uchun ta'lim jarayoni nafaqat bilimlarni berish, balki terapiya va ijtimoiy rehabilitatsiya vositasi hamdir. UNC Children's va CHOP (AQSh) tajribasida gosptal maktab bolaning asosiy maktabi bilan doimiy aloqada bo'lishini ta'minlab, uydagidek yoki maktabdagidek "normallik" hissini beradi^[3].

Tadqiqot natijalari va xalqaro amaliyot (masalan, HOPE va CCHS tajribasi) ko'rsatishicha, ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantirishda quyidagi uchta omil hal qiluvchi ahamiyatga ega:

Ota-ona va pedagog o'rtasidagi ishonchli hamda uzviy muloqot boladagi xavotirlik va emotsional zo'riqish darajasini keskin kamaytiradi. Gosptal ta'lim sharoitida ota-onalar nafaqat kuzatuvchi, balki ta'lim-tarbiya va psixologik qo'llab-quvvatlash jarayonining teng huquqli va faol ishtirokchisiga aylanadi^[1, 4].

Ota-ona va o'qituvchining hamkorlikdagi harakatlari bolada o'z xavfsizligiga va kelajagiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, uning tibbiy muolajalarga hamda o'quv topshiriqlariga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi^[4, 5, 8].

Gosptal pedagog ham yuksak emotsional empatiyaga, ham o'quvchining tibbiy holati hamda dinamikasiga qarab o'quv yuklamasini va metodik usullarni doimiy moslashtira olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Bu turdagi maktabda ishlaydigan o'qituvchidan an'anaviy pedagogik bilimlardan tashqari, tibbiy-psixologik savodxonlik, maxsus gosptal pedagogika texnologiyalari hamda krizisli holatlarda bolalar bilan muloqot qilish mahorati talab etiladi^[4, 5, 8]. Pedagog bolaning toliqish darajasi, og'riq va emotsional tushkunlik belgilarini o'z vaqtida payqab, dars mazmunini tezkor va moslashuvchan ravishda o'zgartirish kompetensiyasiga ega bo'lishi zarur.

Guruhli va loyihaviy faoliyat bolaning o'zini jamiyatdan va tengdoshlaridan izolyatsiya qilingan his etishidan xalos qiladi hamda uning ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarini saqlab qolish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Palatadoshlari yoki boshqa gosptal maktab o'quvchilari bilan birgalikda kichik vaqtinchalik loyihalarda, art-tera-



pevtik mashg'ulotlarda hamda jamoaviy vaqtni mazmunli tashkil etish ishlarida qatnashish bolada hamkorlik, o'zaro yordam va jamoada ishlash sifatlarini shakllantiradi ^[4, 6, 9]. Bu kabi doimiy ijtimoiy aloqalar bolaga kasallik va og'riqlarga chalq'ishiga, o'zini to'laqonli va faol jamiyat a'zosi sifatida his etishiga zamin yaratadi.

Taklif etilgan konseptual model Mehrli maktab muhitida uzoq davolanayotgan o'quvchining ijtimoiy-psixologik, kognitiv va emotsional ehtiyojlarini to'liq qamrab olishga hamda uni kelgusida sog'ayganidan so'ng o'zining doimiy umumta'lim maktabiga va ijtimoiy muhitiga muvaffaqiyatli, minimal psixologik yo'qotishlar bilan moslashuvini (reintegratsiyasini) ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu model ta'lim va reabilitatsiya jarayonining yaxlitligini ta'minlovchi tizimli poydevor vazifasini o'taydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli gospital pedagogikaning ilg'or xalqaro va milliy amaliyot tajribalariga, zamonaviy psixopedagogik tamoyillarga hamda ilmiy-metodologik yondashuvlarga tayanadi.

Tadqiqot va amaliy modellastirish natijalari shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli statsionar sharoitda davolanayotgan bolalar uchun ta'lim jarayonini tashkil etish nafaqat bilimlarni uzatish vositasi, balki bolaning psixologik salomatligini saqlash, ijtimoiy deprivatsiyaning oldini olish hamda harakatlantiruvchi reabilitatsion muhitni yaratishning muhim omilidir. Model doirasida taklif etilgan individual ta'lim marshrutlari va multidisiplinar hamkorlik mexanizmlari gospital ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga va har bir bolaga alohida shaxs sifatida individual yondashishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. European Association for Children in Hospital (EACH). EACH Charter with Annotations. Updated edition, 2022. 19 p. - URL: <https://each-for-sick-children.org>
2. Hospital Organisation of Pedagogues in Europe (HOPE). Rights and Educational Needs of Sick Children and Adolescents (Charter of HOPE). Vienna, 2016. - URL: <https://www.hospitalteachers.eu>
3. Hospital School Programs and Educational Services Materials: UNC Children's Hospital School & Educational Services. - URL: <https://www.uncchildrens.org/> <https://unchs.chccs.org> ;
4. Гусев И. А., Долгуев И. Ю., Зорина Е. С., Соловьев Д. А. Карта индивидуальных особых потребностей обучающихся, нуждающихся в длительном лечении, как инструмент построения образовательного маршрута ученика госпитальной школы: выявление психолого-педагогических характеристик // Перспективы науки и образования. - 2024. - № 2 (68). - С. 488-512. - DOI: 10.32744/pse.2024.2.30.
5. Шариков С. В. Педагогическая поддержка образовательных возможностей детей, находящихся на длительном лечении в медицинских стационарах // Альманах детского института коррекционной педагогики. - 2020. - № 40: Комплексная реабилитация детей с ОБЗ и детей-инвалидов. - URL: <https://alldf.ru/ru/articles/almanac-no-40/support-educational-opportunities-for-children-in-long-term-treatment-in-medical-hospitals>
6. Зорина Е. С., Куртанова Ю. Е., Бурдукова Ю. А., Щербакова А. М. и др. Когнитивные, эмоциональные и социальные особенности детей младшего школьного возраста с онкологическими заболеваниями // Клиническая и специальная психология. - 2023. - Т. 12, № 3. - С. 112-135. - DOI: 10.51217/npsyresearch_2023_03_03_06.
7. Зорина Е. С. Психосоциальная реабилитация в детской онкологии (обзор зарубежных и отечественных исследований) // Вопросы психического здоровья детей и подростков. - 2021. - № 4. - С. 85-94.
8. Ямбург Е. А. Психолого-медико-педагогическое сопровождение школьников: учет их возрастных и индивидуальных различий // Социальная педагогика. - 2013. - № 6. - С. 13-23.
9. Axmedov A. A. Ijtimoiy pedagogika (Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma). - Buxoro: "Kamolot" nashriyoti, 2023. - 244 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.